Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 82

ADABIYOT, MADANIYAT VA IJODIY TARJIMA

Tarixiy shaxs xarakteri va badiiy portretining ilmiy-estetik talqini (M. Osimning “Ibn Sino” qissasi misolida)

Gulnoza Qosimjon qizi Boqiyeva*

24-son o’rta maktab (Farg’ona tumani, Farg’ona viloyati)

✉ qosimjonovnagulnoza@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Mirkarim Osimning “Ibn Sino” qissasida tarixiy shaxs obrazini yaratishda badiiy portret va xarakter sintezi ilmiy-estetik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi qahramonning biologik, ruhiy va intelektual dunyosini ochib berishda badiiy portret dinamikasi, takroriy detallar hamda ilmiy-falsafiy qarashlarning o‘rnini ko‘rsatib berishdan iborat. Ishda qiyosiy-tahliliy, biografik va tekstologik tahlil usullaridan foydalanildi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, adib “qotmadan kelgan”, “qirra burun”, “ma’noli va katta ko‘zlar” kabi vositalar orqali Ibn Sinoning faqat tashqi qiyofasini emas, balki uning o‘tkir mantiqiy fikrlash kuchi, ilmiy halolligi va ma’naviy matonatining dinamik portretini yaratgan. Qissada olimning saroy fitnalari va quvg‘inlik yillaridagi ruhiy kechinmalari hamda aql va nafs kurashiga oid ramziy-falsafiy qarashlari xarakter shakllanishida muhim vosita bo‘lib xizmat qilgani isbotlangan. Xulosa sifatida ta’kidlash mumkinki, M. Osim Ibn Sino obrozida ilmiy e’tiqodini har qanday moddiy boylik va saroy dabdabasidan ustun qo‘ygan yaxlit, erkin hamda murakkab tarixiy shaxs konsepsiyasini shakllantira olgan.

Kalit so‘zlar

Badiiy portret dinamikasi, xarakter psixologizmi, ilmiy-estetik talqin, ramziy-falsafiy qarashlar.

DOI: 10.5281/zenodo.23278805

Kirish. O‘zbek tarixiy nasri va biografik qissachiligida Mirkarim Osim alohida maktab yaratgan adiblardan biridir. Adibning “Ibn Sino” qissasi bu jihatdan milliy adabiyotshunoslik uchun muhim manba hisoblanadi.

Asarda Sharq va G‘arb olamida “Shayx ur-rais” deya e’tirof etilgan buyuk hakim va mutafakkir Abu Ali ibn Sinoning yoshlik yillaridan to umrining so‘nggi damlarigacha bo‘lgan zahmatli hayot yo‘li, ilmiy jasorati, ruhiy kechinmalari badiiy portret va xarakter sintezi orqali yoritib berilgan. Tarixiy shaxs xarakterini yaratishda adib faqatgina badiiy to‘qimaga emas, balki qahramonning biologik va ruhiy dunyosini ochib beruvchi tashqi portret chizgilariga hamda tarixiy manbalarga tayanadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi — Mirkarim Osim nasrida tarixiy shaxs xarakterini shakllantirishda badiiy portret dinamikasi, ayrim detallarning o‘rni va ilmiy-falsafiy qarashlarning psixologik vazifasini ilmiy manbalar hamda matn tahlili asosida atroficha ochib berishdan iboratdir.

Materiallar. Tadqiqotning metodologik asosini Mirkarim Osimning “Ibn Sino” tarixiy qissasi matni hamda adabiyotshunoslik va badiiy psixologiyaga oid ilmiy manbalar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tahliliy, biografik, psixologik, tahlil usullaridan keng foydalanildi. Qahramon portretidagi ba’zi detallarning takrorlanishidagi vazifasi o‘rganib chiqildi.

Natijalar va muhokama. Badiiy adabiyotda portret qahramonning ichki psixologik holati va xarakter xususiyatlarini tashqi qiyofada aks ettiruvchi muhim vositadir. U personajning so‘z vositasida tasvirlangan tashqi ko‘rinishi, o‘quvchi tasavvurida jonlanadigan to‘laqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri.[1] Mirkarim Osim “Ibn Sino” qissasida bosh qahramonni tasvirlash jarayonida ba’zi

detallar va takrorlardan mohirona foydalanib, qahramonning yoshlik, yetuklik hamda xastalik va quvg‘inlik davrlaridagi o‘zgaruvchan (dinamik) portretini yaratadiMuallif Ibn Sinoning jismoniy tuzilishini belgilovchi maxsus iboralarni qissa davomida takroran qo‘llash orqali kitobxon shuurida barqaror va esda qolarli obraz shakllantiradi. Asarda qahramonga nisbatan “qotmadan kelgan” iborasi bir necha bor, “qirra burun” va “qora soqol” ta’riflari esa qat’iy ravishda ishlatiladi. Ushbu ta’riflar shunchaki tashqi ko‘rinish ko‘rsatkichi emas, balki olimning jismonan ixcham, ammo ruhan quvvatli, shiddatli va og‘ir hayotiy mashaqqatlarga chidamli tabiatini anglatuvchi badiiy vositadir. Qissada ta’riflanishicha: “Qora soqol, qirra burun, xushsurat yigit...” [2] tarzidagi chizgilar qahramonning ayni navqiron va ilmiy ijodiyoti jo‘sh urgan davrini ifodalaydi. Shuningdek, Ibn Sinoning 17–18 yoshli yigitlik davri tasvirlanganda, muallif uning “tiniq yuzli, katta-katta ko‘zlarida chuqur ma’no bor” yigit ekanligini alohida ta’kidlaydi. Badiiy matnda ko‘zlarning kattaligi va undagi teran ma’noning bir necha bor urg‘ulanishi tasodifiy emas. Adib ko‘zlarni qahramonning ichki intellektual salohiyati, o‘tkir mantiqiy fikrlash kuchi va mutolaaga bo‘lgan cheksiz tashnaligining tashqi ko‘zgusi sifatida taqdim etadi.

Mirkarim Osim portretni o‘zgarmas holatda qoldirmaydi, balki ijtimoiy va tabiiy sharoitlar ta’sirida uni psixologik dinamikaga soladi. Jumladan, Mozandaronning seryomg‘ir, rutubatli va dim havosi Ibn Sinoning salomatligiga jiddiy putur yetkazib, uning jismoniy quvvatini ketkizganida, qahramon portreti keskin o‘zgaradi. Xastalik, quvg‘inlik va tushkunlik holatida uning yuzi “kulcha yuzli, rangi o‘chgan, zaif ovozli” hamda “mast ayoldek ko‘zini suzib turgan” alfozda tasvirlanadi [3]. Ushbu portretdagi keskin kontrastlik orqali adib buyuk olimning ham jismonan ojizlanib qolishi mumkin bo‘lgan insoniy tabiatini, ruhiy iztiroblarini haqqoniy va ta’sirchan ko‘rsatib bergan.

Mirkarim Osim portret va xatti-harakatlar sintezi orqali Ibn Sinoning murakkab, egilmas va mag‘rur xarakterini bosqichma-bosqich rivojlantirib boradi. Ibn Sino yoshligidanoq soxtalikni va rasmiyatchilikni xush ko‘rmaydigan, o‘z fikrini erkin, dangal va aniq ayta oladigan xarakterga ega. U har qanday tabaqa vakili bilan muloqotda, ilmiy savol-javoblarda tortinishni bilmaydi va suhbatdoshining ko‘ziga tik qarab javob beradi. Uning bu xususiyati asardagi bir dialogda yaqqol namoyon bo‘ladi. Notiliy ustozining Arastuning “Metafizika” (asarda “Mobadattabiya”) asarini ko‘rsatib: “Buni o‘qib turibsizmi?” degan savoliga Ibn Sino hech ikkilanmasdan: “Yo‘q, tushunmaganimdan keyin ne qilayin, o‘qib?” deya dangal va samimiy javob beradi [4]. Ushbu qisqa javob ham qahramonning soxta bilimdonlikdan yiroqligini, o‘z bilmaganini tan olib, tanballik qilmaydigan ilmiy halolligini hamda xarakteridagi jur’at va hozirjavoblikni yorqin ko‘rsatadi.

Qahramon xarakterining asosiy ustunlaridan biri — uning dunyoni va ilmni anglashga bo‘lgan cheksiz ishtiyoqidir. Ibn Sino o‘z umri davomida pul, unvon va mol-dunyoga zarracha qiziqmagan, har qanday moddiy boylik va saroy dabdabasidan ilm-urfonni cheksiz yuqori qo‘ygan. U yuzlab nodir manbalarni mutolaa qilib, ularning mag‘zini uqib, o‘z shuuriga muhrlab olgan inson sifatida gavdalanadi. Ibn Sino shaxsiyatida ozodlik va erkin fikr yuritish eng yuksak ma’naviy qadriyatdir. U hukmdorlar saroyida yashash va ularga xizmat qilishni o‘zi uchun erkinlikni cheklash hamda ilmiy e’tiqodga xiyonat deb biladi. Asarda ta’kidlanganidek, Ibn Sino hech qachon hukmdorlar huzuriga tilyog‘lamachilik bilan bosh egib borgan emas, buni o‘z insoniylik sha’ni va ilmiy ma’naviyati uchun or deb bilgan.

Qahramon xarakterini yanada teranroq va falsafiy anglashda uning inson ruhiyati, aql va nafs kurashiga oid ramziy fikrlari muhim ahamiyat kasb etadi. Asarda alloma insonning ichki ma’naviy va ruhiy dunyosini quyidagicha ramziy-falsafiy tarzda ifodalaydi: “Insonning o‘ng tomonidagi qabih oshno — qahru g‘azab, so‘l tomondagisi — shahvat, old tomondagisi — ezmalik, bema’ni xayolparastlik. Ularga yo‘l qo‘yilsa, kishi xarob bo‘ladur. Aql o‘zining dushmanlari bo‘lgan bu yaramas oshnolarni jilovlab turishi, ularga erk bermasligi kerak. Sayohat — ilm, qutb tomondagi qorong‘ilik — nodonlik, chashma esa ilmning ramzi”.[5] Ushbu falsafiy qarashlar shunchaki qahramonning nazariy mushohadalari bo‘lib qolmay, bevosita Ibn Sinoning o‘z hayotiy tamoyillari va xarakterining ma’naviy asosini tashkil etadi: Olim o‘z xarakterida qahr-g‘azab va shahvoniy manfaatlarni aql jilovi bilan ushlab tura olgan yuksak ma’naviyatli shaxsdir. Saroy fitnalari, hasadchilarning ig‘volari va hukmdorlarning ta’qiblariga uchragan kezlarda ham u hissiyotlarga berilmaydi, qasos yoki nafrat yo‘lini tutmaydi. Uning uchun eng oliy hakam va tayanch — aql, mantiq va ilmdir.

Xulosa. Mirkarim Osimning “Ibn Sino” qissasida badiiy portret va xarakter tahlili shuni ko‘rsatadiki, muallif tarixiy shaxs konsepsiyasini yoritishda yuksak ilmiy, estetik va psixologik mahorat ko‘rsatgan. Adib

qo‘llagan “qotmadan kelgan”, “qirra burun”, “ma’noli va katta ko‘zlar” kabi takroriy jumlalar qahramonning ichki ruhiy dunyosini ochishga xizmat qiladi. Qissada Ibn Sino faqat tarixiy ma’lumotlar yig‘indisi emas, balki aql-idrokni har qanday hissiyotdan ustun qo‘ya olgan, erkinlik va ilm-urfonni hayotining bosh mazmuni deb bilgan yaxlit, murakkab badiiy qahramon sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Quronov, D. Mamajonov, Z. Sheraliyeva, M. (2010). Adabiyotshunoslik lug’ati. Toshkent ”Akademnashr” . 164.

[2] Mirkarim Osim. (2016). Ibn Sino. www. ziyouz. com. 1-3-23-38-39-63.